



A.S. PUSHKIN ASARLARI TARJIMASIDA MUALLIF USLUBINING AKS ETTIRILISHI.

Xurramova Dildora Rahkmonkulovna

(*SamDCHTI, Ikkinch chet tillari kafedra o'qituvchisi*)

Tel:90 270 31 34

dildorakhuramova1987@gmail.com

Anotasiya: *Muallif idioletining badiiy matnda aks etish yo'llari ochib berishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot ishining mavzusi o'tmishda ham, bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan.*

Kalit so'zlar: *idiolekt, tarjima muammosi, uslub, muallif.*

O'zbek xalqi Pushkin asarlari bilan birinchi marotaba XIX asrning oxirlarida shoirning tug'ilganiga yuz yil to'lishi munosabati bilan tanishdi, 1899 yilda «Turkiston viloyati gazeti»da shoirning tarjimai holi haqida maqola va uning she'rlari o'zbek tilida bosilib chiqdi. Yubiley kunlari Pushkin haqida maqolalar, «Shoir», «Shoирга» she'rlari (1899 yil 20, 28 may), «Mazkur Pushkin shoir shoirlilik xususida bul tariqa mazmunlik nazm etibdurlar» degan sarlavha ostida uning «Bog'chasaroy fontani» (1889 yil 3 iyul) kabi asarlarining tarjimalari bosildi. Bularidan tashqari, o'sha yil 24 iyulda shoirning «Baliqchi va baliq haqida ertak» nomli asari ham nasriy yo'l bilan tarjima etilgan. Mazkur asarning she'riy tarjimasi gazetaning 1889 yil 14 avgust sonida bosilgan bo'lib, bu Pushkin asarlarining birinchi tarjimasi edi. «Turkiston viloyati gazeti»da 1899 yilda bosilgan «Aleksandr Sergeyevich Pushkin (1799 -1899)» nomli maqolada ulug' rus shoirining ijodiga g'oyat yuksak baho beradi [50].

Maqolada A.S. Pushkining tarjimai holi va ijodiy faoliyati haqida batafsil ma'lumot beriladi, shundan keyin shoirning she'r va dostonlari, prozaik asarlari boshqa tillarga tarjima etilgani va umuman badiiy tarjimaning ahamiyati haqida alohida to'xtab o'tiladi.

Ulug' shoirning tarjimai holi haqidagi birinchi katta maqola gazetxonlarda S. Pushkinga va uning asarlariga zo'r qiziqish tug'dirdi, xalq ichida katta yig'lnlarda shoirning asarlari o'qila boshlandi. O'sha yillari tashkil etilgan «Toshkent xalq o'qishi komissiyasi» shoirning yubiley tantanasini o'tkazish programmasini gazetalarda e'lon qildi.

Turkiston o'lkasining boshqa shaharlarida ham ulug' shoirga bag'ishlab tantanali kechalar o'tkazildi. Yubiley kunlari va undan keyin ham shoirning bir qancha she'rlari, poema va ertaklari tarjima qilinib chop etildi.

S. Pushkining tarjima etilgan birinchi asariga gazetada sarlavha qo'yilmasdan «Mazkur Pushkin shoir, shoirlilik xususida bul tariqa mazmunlik nazm etibdurlar» deb yozilgan. To'g'ri, tekstdan oldin «Стихотворение А.С. Пушкина «Поет» deb sarlavha qo'yilgan. Tekstning ichida bir she'r emas, balki ikki she'r bo'lib, biri «Shoir» («Поет»),





ikkinchisi «Shoирга» («Поету») she'rlaridir. Qo'yida biz har ikkovini alohida-alohida asl nusxasini beramiz.

Pushkin «Поет» («Shoir») she'rida yozadi:

Пока не требует поэта

К священной жертве Аполлон,

В заботах суетного света

Он малодушно погружен;

Молчит его святая лира

Душа вкушает хладный сон,

И меж детей ничтожных мира

Быт может, всех ничтожней он.

Но лишь божественный глагол

До слуха чуткого коснется,

Душа поэта встрепенется,

Как пробудившийся орел.

Тоскует он в забавах мира,

Людской чуждается молвы;

К ногам народного кумира

Не клонит гордой головы,

Бежит он, дикий и суровый,

И звуков и смятенья полн,

На берега пустынных волн,

В широкошумные дубравы... [75,103-104]

Bu she'r o'zbekchaga quyidagicha nasriy tarjima etilgan:

“Har qayu baland darajadagi shoир, shoирlik xусусида fikr va hayol aylamagan vaqtida bo'lak odamlарdek umr o'tkazadur. Ul vaqtida mazkur shoир nazm aylamay indamay uyqudagidek turadur. Va shul vaqtida shoир o'zi ko'p zehnlik bo'lsa ham, yer yuzidagi bo'lak odamlардан bechora pastroq ko'rindur. Va lekin shoирning ko'ngliga Xudoning ilhomи bo'lsa ul shoирning joni junbishga kirib uyqudin uyg'onib turgan burgutdek osmon tarafiga o'z fikrini parvoz qildiradur. Bu tariqa shoир bul foniy dunyoning tomoshasida xafa bo'ladur va xalq orasidagi har xil so'zlarga quloq solmay va mazkur xalqlar marg'ub ko'rgan ishlarga va narsalarga o'z boshini tuban qilmay, ko'nglida har xil baland fikru hayolni o'ylab devonadek odamlar turadurgan joydin sahroga va yoki qalin tuqayga va yoki hech kim turmaydurg'an daryoning labiga qochib ketmoqni hoxlaydur” [49]. Mana shu satrlardan keyin «Поету» («Shoирга») she'rining tarjimasi boshlanadi:

«Ey shoир! Xalqning maxtaganig'a ko'p ko'ngil qo'yma, zeroki mazkur maxtagan so'zlarning xursandligi va asorati bir daqiqadagi g'avg'odek o'tib ketadur. Va aning o'rniga ahmoqni so'zini va bekor toifani(ng) haqoratini eshitarsan.

Shundoq bo'lsa ham, san shoир, o'z ko'nglingni qimillatmay tinch bo'lub va xafa bo'lma, zeroki, san podshohdek yolg'iz tursang banda bo'lмаган aqling senga





ko'rsatgan keng yo'l birlan safar qil, sening o'z ko'nglingga marg'ub bo'lgan hayol va fikrlarni kamolga yetkurub, hech kimdin in'om tilama! Mazkur in'om sening o'z ko'nglingdadir va o'zing uchun hukm qil, o'z adabiyot va she'ringni mazmunini va qadrini bo'lak odamdan yaxshiroq va durustroq qilasan, deb» [49].

Mana ko'rasizki, bir sarlavha ostida ikkita she'rning tarjimasi yotadi.

«Turkiston viloyati gazeti»ning noto'g'ri qo'gan sarlavhasi natijasida «O'zbek adabiyoti» to'rt tomligi ham xato sarlavha qo'ygan. Shu vaqtgacha Pushkinning faqat bittagina she'ri tarjima qilingan deb yurilardi [46,96].

Endi «Shoir» bilan «Shoирга» she'rlarining tarjimasi sifatiga kelganda shuni aytish mumkinki, bo'larning har ikkisida ham A.S. Pushkin she'rlaridagi g'oyaviy mazmun, fikr va maqsadni to'g'ri berishga harakat qilingan. Ammo «Shoir» nomli she'rning tarjimasida «Bo'lak odamlarday umr o'tkazadur», «Bul tariqa shoир bul foni dunyoning tomoshasida xafa bo'ladur», «Har xil baland fikru xayolni uylab devonadek» kabi asl nusxada bo'limgan jumlalar uchraydi.

Shu bilan birga muvaffaqiyatlchi qiziqan jumlalar bor, masalan «...ilhomni bo'lsa, ul shoirning joni junbishga kirib uyqudin uyg'onib turgan burgutdek osmon tarafiga o'z fikrini parvoz qilduradur» kabi jumlalar ruscha nusxasiga juda monanddir. Xuddi shunday eng oxirgi «ketmoqni xohlaydur» so'zları bilan tamomlangan jumla ham to'g'ri tarjima etilgan. Lekin «ketmoqni xohlaydur» degan ibora o'rniga «qochib ketadi» deyilsa yana to'g'ri bo'lardi, chunki originalda «он хочет бежать» emas, balki «бекит он» -«у qochadi» deyilgan.

Ali Asqar Kalinin «Baliqchi bilan baliq ertagi»ni nasriy yo'l bilan tarjima qildi. Tarjimon asl nusxaning nozik tomonlariga diqqat qilib asarning mazmunini to'la berdi.

Agar biz shu ertakning istagan epizodidan misol olib originalga solishtirsak yuqoridagi fikrimizning to'g'riliгини tasdiqlaydi. Lekin ba'zi bir kitobiy jumlalar borki, ular asarniig uslubiga xalaqit beradi. Masalan, «Bular mazkur bir uyda miqdor o'ttiz uch sana umr kechirmishlar edi» kabi.

Tarjimon personajlarning tiliga alohida e'tibor bergen. Fikrimizning isboti uchun bir necha misollar keltiramiz.

Baliqchi xotinining harakteri o'zgarib, dag'al va qo'pol bo'lib borayotganini tasvirlovchi satrlar:

Ruschasi

Дурачина ты, простофия!

Не умел ты взять выкупа с рыбки!

Хот бы взял ты с нее корыто,

Наше-то совсем раскололось [77,199].


O'zbekchasi

Ey, ahmoq chol! Loaql bir yangi

Jomashov surasang bo'lmasmu edi, chunki

Jomashovimiz yorilib ishga yaramay yotibdur [73,54]

Дурачина ты, простофия!





Выпросил, дурачина, корыто!

В корыте много ли корица?

Воротись, дурачина, ты к рыбке; [77,200]

2. Ey devona chol!

Yangi jomashov tilab olibsan.

Jomashovdan nima foyda!

Bor hozir tilla baliqqa ta'zim ila emdi uy so'ra [73,54]

Mana bu keltirilgan misollarda shaddod va dag'al, shum kampirning xarakteri, tili ochiq-oydin berilgan. Dvoryanka bo'lgan shum kampir salom berib kelgan erini otxonaga haydab yuboradi, buyrug'ini bajarmagani uchun jag'iga bir shapaloq urib: «Nima deysan sen menga! Kim bilan gapirganining bilasanmi! Bor deganda yaxshilik bilan bor, agar bormasang, yelkalab ham olib borurlar», -deydi.

Mana bu tarjimani asl nusxaga solishtirib ko'rsangiz, uning aynan o'zi ekanligini bilib olasiz:

Осердился пуще старуха,

По щеке ударила мужа.

«Как ты смееш,

Мужик спорит со мною,

Со мною, дворянкой столбовою?»-

Ступай к морю, говорят тебе чекаю,

Не пойдеш, поведуг поневоле.»

Tarjimon ertakdagi salbiy qahramonning tilini yaxshi bergen. A.S. Pushkinding «Bog'chasaroy fontani» o'zbek tiliga «Shoir» va «Shoирга» she'rlari tarjima qilingandan so'ng (1899 yil 3 iyulda) «Turkiston viloyati gazeti»da bosilib chiqdi.

«Bog'chasaroy fontani» ning tarjimasi juda og'ir va mushkul bo'lishiga qaramay, tarjimon o'zidagi butun talant va san'atini sarf qilib, dostonning ruhi, intonatsiyasini berishga harakat qilgan. Bu tarjima o'quvchida o'sha noma'lum tarjimonga nisbatan hurmat, ehtirom hislarini tug'diradi. Misollar keltiramiz.

Mana Garayxonning xafa bo'lib o'tirgan paytining tasviri:

Гирей сидел потупя взор;

Янтарь в устах его дымился;

Безмолвно раболепный

Вокруг хана грозную теснился.

Всё было тихо во дворце,

Благоговея, все читали


Приметы гнева и печали

На сумрачном его лите.

Но повелитель горделивый

Махнул рукой нетерпеливой:

И все, склонившись идут вон [77,201]





*Garayxon ko'zini quyi qaratib
ulturub va sadafdin qilingon.
dvorchilimni tortib og'zidan tutun
chiqarib, ul vaqtda achchig'lig'i
kelib turgonda xonning atrofida
kelmoqni xohlab, bir -birlarini
surubdur va xonning urdasida
ko'p ohistalik bo'lub xonning yuzida
xafalik va qahru g'azab asarini
faxmlabdurlar.*

Va bir daf'a ul takabburlik xon tezlik ilan qo'l birlan ishorat qilganda mazkur tamomi arkoni davlatlar to'g'ri qulluq qilib o'rdadan chiqibdurlar [49].

Garchand ba'zi jumlalar uzun va ba'zi iboralar izoh aralash tarjima etilgan bo'lsada, ular asar mazmunini, ruhini to'la-to'kis berish uchun xizmat qilgan. Garayxonning xafa va darg'azab bo'lib ugirganini bilish uchun shoir savol-javob berish usulini qo'llaydi, tarjimon ham xuddi shu uslubni ishlataladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. – М.: ГИХЛ, 1946. – 461 с.
2. Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. – М.: ГИХЛ, 1961. – 614 с.
3. Salomov G'. Tarjima tashvishlari.Toshkent, 1983.
4. Isaqov.U. Inglizcha-o'zbekcha lug'at.T., 2013.
5. Xolmirzayev.T. Urducha-o'zbekcha lug'at.Islomobod, 2003.

